

---

## TUMAN HOKIMLIGIDA...

Joriy yilning 16 iyun kuni Rishton tumani hokimligi katta majlislar zalida Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari J. Hatamov boshchiligida viloyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, noqonuniy diniy ta'lim va xo'jra tashkil etish holatlarini oldini olish bo'yicha faollar yig'ilishi o'tkazildi. Yig'ilishda tuman hokimi, tuman hokimi o'rinbosarlari, noqonuniy diniy ta'lim berish, xo'jra holatlari aniqlangan sektor rahbarlari, rasmiy imom-xatiblar, rasmiy otin-oyilar, mahalla mullalari va norasmiy otin-oyilar, tumandagi 71 ta MFY raislari, MFYdagi xotin-qizlar faollari, targ'ibot guruhi rahbarlari ishtirok etishdi. J. Hatamov tomonidan yig'ilish ishtirokchilariga Islom dinining asl mohiyati to'g'risida tushunchalar berib, O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni talablari bo'yicha diniy tashkilot sifatida ruyxatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatish, shuningdek, diniy ta'lim muassasalaridan tashqarida xususiy tartibda diniy ta'lim berish faoliyati bilan shug'ullanish qonunga xilof ekanligi, O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi Kodeksning 240-moddasiga asosan "Nolegal diniy faoliyat bilan shug'ullanish, dindorlar va diniy tashkilotlar a'zolari tomonidan bolalar va o'smirlarning maxsus yig'ilishlari, shuningdek diniy marosimga aloqasi bo'lmagan mehnat, adabiyot va boshqa xildagi to'garaklar hamda guruhlarini tashkil etish va o'tkazish" diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchilikni buzish ekanligi, shu kodeksning 241-moddasiga asosan "Maxsus diniy ma'lumoti bo'lmay turib va diniy tashkilot boshqaruvi markaziy organining ruxsatisiz diniy ta'limotdan saboq berish, xuddi shuningdek xususiy tartibda diniy ta'limotdan saboq berish" diniy ta'limotdan saboq berish tartibini bo'zish ekanligi, ushbu holatlar sodir etilgan taqdirda ma'muriy javobgarlikka sabab bo'lishi, kodeksning yuqoridagi moddasida ko'rsatib o'tilgan harakatlar uchun ma'muriy jazo qullanilgandan keyin sodir etiladigan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi "Jinoyat kodeksi"ning 2292-moddasiga asosan diniy ta'limotdan saboq berish tartibini buzish ekanligi, ushbu holatlar sodir etilgan taqdirda jinoiy javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lishi to'g'risida tushuntirishlar berib ogohlantirdi.

2022-06-16 17:05:02